

TURIZMNING MILLIY IQTISODIYOTIMIZGA TUTGAN O'RNI**Nasiba Muxammadovna Aslonova***Buxoro Davlat Universiteti katta o'qituvchisi***A R T I C L E I N F O.****Annotatsiya****Kalit so'zlar:**

turizm, strategiya, iqtisod, rayon,
daromad.

Maqolada O'zbekiston hududida turizmning o'mni, qilinayotgan xizmatlar, muammolar yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Bugungi juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib boryapti. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyonи, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqliki, milliy turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

O'zbekiston yangi 21- asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. 21- asr- turizm va sayyoohlik asri bo'ladi deb bashorat qilinmoqda. 21- asrda turizm o'zining salmoqli hissasi bilan respublika budgetida katta o'rin egallashi kutilmoqda. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalarga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir.

Turizm turistlarga xizmat ko'rsatishda aloqador bo'lgan tarmoqlar majlisini qamrab oluvchi o'ziga xos dam olish sanoati hisoblanadi. Turizm sohasidagi hamkorlik xo'jalik jamoat ishlab chiqarishga aholining band bo'limgan, yoki qisman band bo'lgan qatlamlarini jalb qilib, mehnat resurslaridan to'liq va oqilona foydalanish muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa sanoati yaxshi rivojlanmagan mintaqalar uchun muhimdir. Turizm sohasidagi hamkorlik iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan yuqori emasligi bilan farqlanuvchi ayrim mintaqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm, bu mintaqalarda ishga oid faollikka yordam beradi, jamoat ishlab chiqarishida band bo'limgan mehnatga layoqatli aholini jalb qiladi, mehnatni tatbiq qilish sohasini kengaytiradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi, mintaqaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda

xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi. Milliy Turistik xo'jalik-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va uni yaxshilashga yordam beradi. Kelajakda aholiga xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi munosabati bilan xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni ortib boradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish orqali xo'jalikning jadal rivojlanishi, uning iqtisodiy ahamiyatining o'sishi turistik xizmat sohasining katta foyda keltira olishi, bu sohaga sarmoyalarni ko'plab sarflanishiga olib keldi. Mablag'ni ko'p talab qilishiga qaramay, turistik sohaga sarflangan sarmoya juda foydalidir, chunki u o'zini nisbatan tez qoplaydi. Xorijiy turistlardan, mahalliy aholidan olinadigan pul tushumlari daromadga aylanadi va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida muomalada bo'ladi.

“O'zbekistonda milliy turizmni rivojlanish istiqbollari”- bu mavzu bugungi

kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarining barpo etilayotganligi, ishchi o'rirlari sonining ko'payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko'payayotganligini ta'kidlab o'tishimiz joiz deb o'layman.

Daromad keltirishi bo'yicha turizm neft va avtomobil sohasidan keyin uchinchi o'rinda turadi. Tabiiyki, valyuta oqimini ko'payishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, madaniy yodgorliklardan turizm maqsadida foydalanish masalalarini, ushbu sohadagi ilg'or tajribani o'rganish zaruriyati mavjud.

Hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarida turizm industriyası iqtisodiyotning etakchi tarmog'i hisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohasida olib borilayotgan tarkibiy iqtisodiy islohatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ham shu maqsadga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtolib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqasi mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysi o'z ichiga hamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiat, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga hamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temir yo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'limgan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g'oyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichon qal'a qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q g'oyatda boy tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo'lib, ular Jizzax, Qarshi-Termiz va O'rta-Qoraqalpoq mintaqalaridir. Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

O'zim yashaydigan mintaqaga haqida gapiradigan bo'lsam, bu Samarqand, Buxoro va qisman Navoiy viloyatlari hududini o'z ichiga oladi. Bu tumanda turizmning rivojlanishi Samarqand va Buxoroning butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalariga asoslangan. Cho'lning issiq iqlimini hisobga olgan holda yagona bosh reja asosida bunyod etilgan Navoiy shahri ham ta'limiy ahamiyatga ega. Tumanning geografik joylashuvi turizmni rivojlantirish uchun juda qulaydir. Zarafshon daryosi bo'ylab o'tkazilgan temir yo'l, keng rivojlangan shosse yo'llari tarmogi, Zarafshon orqali unchalik baland bo'limgan dovonlar va yaxshi so'qmoqlarning mavjudligi tumandan turizm maqsadlarida foydalanishni g'oyatda osonlashtiradi.

Kelgusida O'zbekistonning yana bir rayonini - O'RTA QORAQUALPOQ rayonini ham o'zlashtirish mumkin. Bu hududni o'zlashtirish kommunikatsiyalar qurish uchun katta kapital mablag'larni, katta hajmdagi obodonlashtirish ishlarini talab qiladi. Bu yerda Tuproqqa'l'a, Burgutqa'l'a, Gildursun qal'alari, Qiyot shahri kabi ekskursiya ob'ektlari joylashgan. Bu arxeologik yodgorliklar qadimgi Xorazm tsivilizatsiyasiga oid bo'lib, ta'limiy turizm resurslari sifatida tarixiy-me'morchilik ahamiyatiga ega bo'lgan Xorazm turizm rayoni bilan chambarchas bog'liqidir. Ushbu yodgorliklar guruhiga borish uchun bu hududda yaxshi transport yo'llari mavjudligi ularni Xorazm rayonining turizm resurslariga kiritilishini taqozo qiladi.

Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq turizm sohasi yetarlicha rivojlanmagan O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji pul tushumlari ko'payishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Turizm umumiyligi o'sishga kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Yaxshi rivojlanmagan hududlarda turistik markazlar ochish ko'pgina davlatlarning asosiy usuli xisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga aholi turmush sharoitining qandayligiga bog'liq. Turizm rivojining kelajagini aniqlash uchun avvalo moddiy-texnika bazasi, turistik resurslar ko'lami mazkur turistik maxsulotga bo'lgan talabni chuqur o'rganish lozim. Bu ishda turistik resurslar bahosini haddan tashqari oshirib yubormaslik lozim. Masalan, ma'lum bir mintaqadagi tarixiy yodgorlik faqat shu joyning o'zi uchungina qiziqarli bo'lishi mumkin, xalqaro maydonda esa boshqa ko'plab yodgorliklarning u qadar ahamiyati bo'lmasligi turistlarni o'ziga jalb qilmasligi mumkin va shuning uchun ham bunday tumanlarda moddiy texnika bazasini yaratishdan ko'p foya olish amri mahol. Shunday qilib, tumanda barpo etilgan turistik markaz uning rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtaidagi hamkorlikni rivojlanish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zamanni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyogarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot-reklama ishlari va rasmiyatçilikni soddallashtirish kabilar bilan shug'ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlanish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlanish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda jami 700 dan ortiq xususiy turistik firmalar mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi kichik va o'rta biznes sub'ektlariga tegishlidir. Ma'lumki, Respublikamizda turizmni rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi mamlakatimiz turizm sohasidagi xususiy mulkchilik munosabatlarini qaror toptirish va rivojlantirish bo'yicha bosh tashkilot hisoblanadi. Shu tufayli jami turistik firmalardagi ish jarayoni milliy kompaniya tomonidan nazorat qilib boriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xususiy turistik korxonalarning mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiiga ko'rsatayotgan ijobjiy ta'siriga halaqit beruvchi talaygina muammolar mavjud bo'lib, ular bevosita hukumatimiz tomonidan asta-sekinlik bilan bartaraf etib borilmoqda.

Turistik firmalar faoliyatini zaruriy sharti undagi litsenziyaning mavjudligidir. Respublikamizda Turizmni litsenziyalash bir necha yillardan beri amalga oshirilib kelinmoqda. Turizm bilan shug'ullanish uchun Litsenziya faqat «O'zbekturizm» M.K. va Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi komissiya qarori asosida beriladi. Litsenziya berilganligi uchun eng kam ish xaqining 25 barobari miqdorida yig'im to'lanadi. Yig'im «O'zbekturizm» M.K. xuzuridagi turizmni rivojlantirish fondga yo'naltirilgan. Hozirda ko'pchilik litsenziyasi bor kishilar bir vaqtning o'zida turoperatorlik va turistik faoliyat bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun jamoat tashkilotlaridan turizm sohasidagi faoliyat turlarini xalqaro tasniflash andozalariga muvofiq holda umumiylitsenziyalash tizimini joriy etish zarurligi maqsadga muvofiqli.

Albatta O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o`ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko`pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat

O'zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qирг'изистон va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko`plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalaridan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Chimyon va To'rtko'l kabi tog' - chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo`lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Baland qorli tog'lar, alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning

ko`pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Bu esa ko`plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi. Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to`liq qondira olmayapti.

Albatta Milliy turizmni rivojlantirish uchun uni tartibga solish boshqarishning

bozor mexanizmini yaxshilash kerak. Hozirda turizm bozori mexanizmi muayyan kamchiliklarga ega bo'lib bu kamchiliklarni yo`qatish uchun davlat turistik siyosatni amalga oshirish va turizm sohasini tartibga solish zarur davlatning turizm borasidagisiyosati bu davlatning turizm industriyasi va turistik bozor subyektlarini rivojlantirish fuqarolarga turistik xizmat ko'rsatish shakllarini takomillashtirish davlatning siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqqan holda ularni mustahkamlash faoliyatidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini Xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishda xususiy turistik korxonalarning faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish borasida talaygina siljishlarga erishilmoqda. Hozirgi kunda, mamlakatimizda 740 dan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari, 60 ga yaqin xususiy turistik korxonalar turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotganligi, turistik maxsulotning yangidan-yangi zamonaviy turlarini kichik va xususiy turistik firmalar tomonidan kashf etilayotganligi va bular doirasida turli xil turistik xizmatlarning ko'rsatilayotganligi, turistik firmalarning tashabbusi bilan mamlakatimizda mavjud turizm resurslarining boshqa turlaridan samarali foydalanishning amalga oshirilayotganligi va

boshqa shu kabi o“zgarishlar fikrimizning yaqqol isboti bo’la oladi.

O`zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish yo`llari mavjud. Har bir mintaqo o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra turistlarni jalb qila oladi. Davlatimizda turistik yarmarkalarни bo`lib o`tishi ham shundan dalolat beradi. Ayniqsa Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Farg`ona vodiysi va boshqa regionlar o`z turistik mahsuloti bilan ajralib turadi va bu regionlarning katta potensialga ega. Milliy turizm o`zi bilan bog’liq sohalarni ham ijobjiy tomonga rivojlanishiga olib keladi. Bunday rivojlanish kelajakda nafaqat davlat mavqeini, balki turistik bozorda davlatning o`z o`rnini topishiga turtki bo’la olishi g’oyasini o`z ichiga olgan.

Umuman olganda, milliy turizm kelajakda mamlakatimizning eng yuqori daromadli tarmoqlaridan biriga aylanadi. Buning uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar, siyosiy tinchlik va eng asosiysi, xalqimizning insonparvarligi va mehmondo“stligi nixoyatda muhim omil bo“lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alieva M.T. “Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti” darslik, Toshkent, TDIU 2009 yil, 146 bet.
2. Komilova F.K “Mukammal turizm g’oyasi”. “Iqtisodiyot va ta“lim” № 2, 2003 yil 98 bet.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2009y.
4. O’zbekiston Respublikasining “Turizm to“g’risida”gi qonuni – O’zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent, 2000y.
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №346 1998 yil 8 avgustda qabul qilingan “Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish” to’g’risidagi farmoyishi.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 maydagи “Xizmat ko’rsatish va servis sohasini 2006 – 2010 yillarda rivojlantirish haqida”gi PQ – 325 – sonli qarori.
7. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
8. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4
9. Adilov Z. ISSUES OF IMPROVING TOURIST OPPORTUNITIES IN NAMANGAN REGION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1224> //RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES. – 2021. – №. 18.05.
10. www.library.uz
11. www.statistics.uz
12. www.tour.uz
13. www.uzbekistonovozi.uz
14. www.uza.uz
15. www.Uzreports.uz
16. www.Uzbektourism.uz
17. www.uzbektourism.uz
18. www.world-tourism.org